

NEMIS TILI DARSLARIDA TALABALARING LEKSIKASINI YASAMA SO‘ZLAR ORQALI O‘RGATISH METODIKASI

Abduraxmanov Sirojiddin Muminkulovich

*Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Аннотация: Ushbu maqola nemis tillarida leksik hosilalarni metodologik o‘rganish haqida. Nemis tillarida so‘z yasalishi, morfemik tuzilishi va ularni o‘rgatish usullari haqida so‘z boradi. Nemis tillarining grammatikasi, leksikologiyasi va so‘z yasalishi tarixiy nuqtai nazardan o‘rganilgan. Leksik hosilalar orqali so‘z yasashga misollar keltiriladi.

Ma’lumki, har qanday tilni o‘rganishda tilning ichki qonuniyatlarini bilish va bu qonuniyatlar orqali o‘rganilayotgan til doirasidagi nutqiy ko‘nikma va malakalarni to‘g‘ri shakllantirish masalasi muhim o‘rin tutadi. Ta’limning turli bosqichlarida xorijiy tillarni o‘rganishda so‘zlararo va birikmalararo yuzaga keladigan sintagmatik va paradigmatic munosabatlarga alohida e’tibor qaratish, so‘z birikmalaridagi so‘zlararo uzviy bog‘lanishlarni to‘g‘ri mushohada qila olish va o‘rganilayotgan til orqali nutqiy muloqotga kirishish jarayonida ulardan samarali foydalana bilish talab etiladi.

Chet tillarni o‘qitish va o‘rganishda hoh u o‘rta maktabda bo‘lsin, hoh oliy o‘quv yurtida, turli xil o‘qitish metodlaridan samarali foydalanish talab etiladi. Shu boisdan, xorijiy tillarni o‘qitishda o‘qitish maqsadidan kelib chiqqan holda jarayonga yondashish, chet tili o‘qitishda vaziyatga qarab to‘g‘ri metodni tanlay bilish talab etiladi. Metodist olim N.V. Barishnikovaning ta’kidlashicha, azal-azaldan kishilarda chet tillarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj juda kuchli bo‘lgan. Chet tillarni o‘qitish metodikasi tarixida asrlar davomida “tarbiyachi ayol - guvernantka” nomi bilan mashhur bo‘lgan tabiiy metod keng qo‘llanilgan. Keyinchalik esa chet tili o‘qitishda boshqa metodlardan ham foydalanila boshlangan va bu metodlar o‘quv predmeti, o‘qitish sharoitlariga qarab bir-birini to‘ldirib borgan [1; 53].

Davr o‘tishi bilan xorijiy tillarni o‘rgatishda bir necha usul va metodlardan keng foydalanilgan. Jumladan, nemis olimlari Fleischer Wolfgang va Irmhild Barz- lar bunday metodikalarga grammatika-tarjima metodi (GTM), bevosita metodlar (chet tillarni ona tili vositasiz o‘qitish), audiolingual va audiovisual metodlar, kommunikativ didaktika, madaniyatlararo chet tili ta’limi kabi uslubiyatlarni kiritishgan [2; 15-17].

Chet tili o‘qitish metodlarining o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar sifatida esa quyidagilarni ta’kidlab o‘tishgan:

- 1) ta’lim va yosh psixologiyasi borasidagi o‘zgarishlar;

- 2) ona tilini o‘qitish borasidagi ta’limiy usullar;
- 3) shaxsning individual xususiyatlarini o‘rganish qobiliyatları, guruhga xos bo‘lgan qibiliyatlar;
- 4) o‘quv guruhining aniq maqsadlari;
- 5) pedagogika va dars nazariyasi bo‘yicha takliflar;
- 6) tilshunoslik sohasidagi o‘zgarishlar;
- 7) badiiy adabiyotlardan olingen matnlar bilan ishlashdagi taassurotlar;
- 8) tili o‘rganilayotgan mamlakat haqidagi tasavvurlar;
- 9) nemis tilini qo‘srimcha chet tili sifatida o‘rganish jarayonida orttirilgan tajribalar;
- 10) tili o‘rganilayotgan mamlakatdagi o‘qitish va o‘rganish borasidagi ta’limiy an'analar [2;18].

Nemis olimlarining fikriga qo‘srimcha tarzda, bizning fikrimizcha, xorijiy tillarni o‘rganishning turli metodikalaridan samarali foydalanish eng avvalo, tarixiy shart-sharoitlar asosida yuzaga keladi deb hisoblaymiz. Jumladan, yurtimizda o‘tgan asrning birinchi yarmida chet tili o‘qitishda grammatika-tarjima metodikasi keng qo‘llanilgan. Zero, bu davrda sobiq sovet ittifoqi tarkibida bo‘lgan mamlakatimiz dunyodagi ko‘plab davlatlar, xususan, kapitalistik mamlakatlardan to‘liq izolyatsiya qilingan edi. Shu sabab bu davrdagi asosiy maqsad chet tilida o‘qish va yozishni o‘rgatish edi. Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida fan-texnika gurkirab rivojlandi. Bu davrga kelib, yangi texnik vositalar yordamida chet tillarga oid o‘quv materiallarini ko‘rish va eshitishning imkoniyati kuchayishi tufayli xorijiy tillarni o‘qitishda audiolingual va audiovisual metodlar an'anaviy grammatika-tarjima metodining o‘rnini egalladi. Mamlakatimizning mustaqillikka erishishi natijasida uning xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy hamda diplomatik aloqalar o‘rnatishi chet tilida muloqotni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan kommunikativ metodikani chet tili o‘qitishda yetakchi o‘ringa chiqardi va buning uchun xorijiy tillarni o‘rganishda nutqiy vaziyatlar yaratishga ahamiyat qaratildi.

XXI asrga kelib, mustaqil respublikamiz dunyo miqyosida o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. Endilikda yurtimizda innovatsion texnologiyalarga, turizmni rivojlantirishga alohida ahamiyat berila boshlandi. Yurtboshimizning sa’yi-harakatlari bilan bu borada chiqarilgan farmonlar va qarorlar ijrosiga, sayyohlarni yurtimizga yanada ko‘proq jalb qilish maqsadida ularga xalqimizning azaliy qadriyatlarini, mamlakatimizning bebaone’matlarini namoyon qilishga alohida e’tibor qaratilishi natijasida mamlakatimizda chet tili o‘qitishda lingvomamlakatshunoslik va lingvokulturologik yondashuvdagagi innovativ metodlardan oqilona foydalanish zarurligini talab qila boshladi.

Ko‘rinib turibdiki, chet tilini o‘qitishning asosiy maqsadi davr va vaziyat talabidan kelib chiqar ekan. Shu nuqtai nazardan, biz talabalarga nemis tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o‘rgatishda o‘qitish metodikasini kognitiv tilshunoslik bilan bevosita

bog‘lagan holda ongli qiyoslash va mantiqiy tafakkur metodlaridan foydalanish katta samara beradi deb hisoblaymiz. Zero, talabalar mustaqil fikrga ega bo‘lgan yoshlardir va har bir darsdagi mashg‘ulotlar ularning mantiqiy fikrashlarini o‘stirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, ongli-qiyoslash metodi orqali o‘rganilayotgan materialni talabalar nafaqat o‘z ona tillari bilan, balki yana o‘zlari tomonidan o‘zlashtirilayotgan birinchi chet til bilan qiyoslab o‘rganishlariga imkoniyat yaratiladi.

Karina Schneider Wiejowski o‘zining “Produktivität in der deutschen Derivationsmorphologie.” nomli dissertatsiyasida nemis tilida qo‘shma so‘zlar, xususan, ot+ot, fe’l o‘zagi + ot, sifat+sifat, predlog+fe’l kabi qo‘shma so‘zlar ko‘p uchrashiga alohida urg‘u beradi: **Sprachkompetenz, Rufnummer, Nullmenge, Wir-Gefühl, weltbekannt, methoden-orientiert, wissenschaftsnah, linksliberal, deutsch-französisch, aufstellen, weiterarbeiten, schlussfolgern, anhand, infolge...** Olimaning fikriga ko‘ra, bunday qo‘shma so‘zlar determinativ va kopulativ tarzda so‘zlarning birikishi orqali nisbatan ko‘proq hosil qilinadi [3;96].

O‘z navbatida, nemis tilidagi qo‘shma so‘zlarga ham so‘z yasovchi qo‘shimchalar qoshilishi orqali mavjud qo‘shma so‘zlardan yangi ma’noli so‘zlar yaratish imkoniyati ham mavjud bo‘lib, bu imkoniyat tabiiyki, so‘z boyligini yanada oshishiga xizmat qiladi. Masalan, „**Hochschullehre**“ (oliy o‘quv yurti ta’limoti) qo‘shma so‘zining o‘zi uch o‘zakdan tarkib topgan: **hoch + Schule + lehr** (-en). Shu so‘zga shaxs oti yasovchi qo‘shimcha „-er“ ni qo‘shish orqali, yangi hosilani hosil qilishimiz mumkin, ya‘ni „**Hochschullehrer**“ (oliy o‘quv yurtida dars beruvchi o‘qituvchi). Demak, bu qo‘shma so‘zning semantik ma’nosini o‘zgartirishda shaxs nomi yasovchi „-er“ derivatining o‘z ulushi bor ekan. Yoki **die blaue Auge** (ko‘k ko‘z) so‘z birikmasiga „-ig“ sifat yasovchi qo‘shimchani qo‘shish bilan “**blauäugig**” (ko‘k ko‘zli) so‘zini hosil qilish mumkin. Bu yangi ma’noli qo‘shma sifatini hosil qilinishi orqali so‘z boyligimiz yana bittaga oshadi. Talabalarning nemis tilidagi so‘z boyligini oshirishga tarixiylik tamoyili asosida ham yondashish mumkin. Bu o‘rinda, tarixiy sharoit tufayli ma’lum bir vaqt mobaynida ayrim nemis tilidagi so‘z yasovchi qo‘shimchalar o‘zakka qo‘shilib ketganligi natijasida, bu tilda o‘zak-negiz munosabatida so‘z yasalish hodisasi ham uchrab turishini talabalar ongiga singdirish lozim deb hisoblaymiz. Masalan, nemis tilidagi “**Zuhause**” (uy, makon) so‘zi hozirda bir o‘zakdan tashkil topgan. Bu so‘z etimologik jihatdan o‘rganilganda, “zu” predlogi va “-e” negiz yasovchi qo‘shimchaning o‘zakka qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan.

Bu o‘rinda shuni ham qayd etib o‘tishimiz lozimki, nemis tilidagi ayrim suffikslar ham aslida alohida lug‘aviy ma’nolarga ega bo‘lgan leksemalardan yuzaga kelgan yarim old qo‘shimchalar hisoblanadi. Jumladan, bunday yarim old qo‘shimchalarga –art (die Art - tur), -sorte (die Sorte - tur, sort), -werk (das Werk- asar, ish), -wesen (das Wesen - mohiyat) kabilarni kiritishimiz mumkin.

Shuningdek, nemis tilini o'rgatishda ko'pchilik bir o'zakli nemischa so'zlar aslida tarixan ikki o'zakning o'zaro birikishidan yuzaga kelganligini, yoki konvertsiya usulida turli so'z turkumlariga xos yangi ma'noli so'zlar hosil qilish imkoniyatlarini ham qayd etib o'tish joizdir. Masalan:

Qo'shma so'zlardan bir o'zakli so'zlar hosil bo'lishi: **Sonntag** (**Sonne + Tag**), **allein** (**alle + ein**), **wieder** (**wie + der**)...

Bir so'z turkumidan boshqa so'z turkumiga o'tish: **grün** – yashil (sifat), **das Grün** – yashil rang, ko'kat (ot); **lachen** – kulmoq (fe'l), **das Lachen** – kulgu (ot); **der Dank** – minnatdorchilik (ot), **dank** – sharofati bilan, tufayli (predlog) va boshqalar.

Bu o'rinda old qo'shimchalarining so'zga qo'shilishi natijasida nemis tilidagi so'zning ma'nosi qisman yoki tubdan o'zgarishini ham talabalarga tushuntirib o'tish lozim deb hisoblaymiz. Ya'ni, nemis tilidagi ajraluvchi old qo'shimchalar aksariyat hollarda so'z ma'nosiga qisman o'zgartirish kiritishi va aksincha, ajralmaydigan old qo'shimchalar so'z ma'nosini to'lig'icha o'zgarishiga olib kelishi talabalarga tushuntirib o'tilishi lozim. Masalan: **kommen** – kelmoq, **ankommen** – yetib kelmoq, **einkommen** – foyda olmoq, abkommen – **kelishib olmoq**; **fahren** – bormoq, **abfahren** – jo'nab ketmoq; **suchen** – izlamoq, qidirmoq; **besuchen** – mehmonga bormoq, qatnashmoq; **versuchen** – urinib ko'rmoq.

Shuningdek, o'qituvchi tomonidan talabalarga nemis tilidagi ajralmaydigan old qo'shimchalaridan „miß-, ver-“ kabilar yordamida so'zning zid ma'nosi ham hosil qilinishi quyidagidek misollar yordamida ko'rsatib o'tilishi shart: **mieten** – ijaraga olmoq, **vermieten** – ijaraga bermoq; **gelingen** – muvaffaqiyatli chiqmoq, **mißlingen** – muvaffaq bo'maslik .

Nemis tili affikslarini o'rgatishda yana shunga e'tibor qaratish kerakki, agar prefikslar o'zi bo'glangan fe'l bilan o'z ma'nosida qo'llansa, ular fe'lidan ajralib, gap oxirida keladi, agar prefikslar ko'chma ma'no ifodalasa, ular fe'l o'zagidan ajralmaydi.

O'z navbatida, nemis tilida suffikslar orqali so'z yasalishida hamisha so'zning ma'nosi o'zgarib borishini tegishli misollar yordamida qayd etib o'tish lozim. Misol uchun:

Freund – do'st, **Freundschaft** – do'stlik , **freundschaftlich** – do'stona;
rein – toza, **reinlich** – **Reinheit - Reinlichkeit** – tozalik...

Ingliz tilida bo'lgani kabi nemis tilida ham "predlog + ot" shaklida derivatsiyaga uchragan turg'un so'z birikmalar qo'llaniladi. Bunday ko'rinishdagi iboralarni ham ingliz va nemis tillarida qiyosiy jihatdan talabalarga o'rgatish maqsadga muvofikdir: Masalan, ingliz tilida:

By day (kunduz kunida), **at night** (tunda), **by car** (**by bus**, **by train**, **by ship**, **by boat**, **by plain**...) (mashinada, avtobusda, poyezdda, kemada, qayiqda samolyotda...), **on foot** (piyoda), **at home** (uyda) va boshqalar.

Nemis tilidagi bunday derivatsiyalarga quyidagilar kiradi: **nach Jahr und Tag** – belgilangan muddatda, **in Bausch und Bogen** – to‘lig‘icha, to‘liq holda, **von Mal zu Mal** – vaqtı-vaqtı bilan, **nach Hause** – uyga, **zu Hause** – uyda, **Schritt für Schritt** – qadamma- qadam.

Nemis va ingliz tillaridagi “predlog va ot” ko‘rinishida hosil bo‘lgan iboralarning o‘xshashligidan va german tillarida bunday iboralarning aksariyati predlogning otga artiklsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanishidan hosil bo‘lganligidan kelib chiqqan holda, quyidagi fikr-mulohazalarini talabalar ongiga singdirish mumkin:

Agar predlog va otning tegishli kelishik shakli hech qanday grammatick aloqasiz, to‘g‘ridan-tog‘ri bog‘lansa bunda frazeologik birikma, agar biror-bir grammatick vosita yordamida bog‘lansa so‘z birikmasi yuzaga keladi. (masalan, ingliz tilida: **to bed** (yotishga) – frazeologik birikma, **to the bed** (karavotga) – so‘z birikmasi; nemis tilida: nach Hause (uyga) - frazeologik birikma, nach dem Haus (uydan keyin) – so‘z birikmasi.

Bizning fikrimizcha, o‘zbek talabalariga nemis tilidagi so‘z yasovchi qo‘shimchalarning qaysilari unumli, qaysi birlari unumsiz ekanligi haqida ma’lumot berilishi ham maqsadga muvofiqdir.

Olimlar nemis tilidagi mahsuldor affikslar qatoriga quyidagilarni kiritishadi: **ent-, be-, an-, ab-, aus-, -ig, -lich, -mäßig, -heit, -sam, -schaft, -er** va boshqalar.

Torsten Sieverning fikriga ko‘ra, nemis tilida 100 ga yaqin mustaqil bo‘lmagan morfemalar mavjud bo‘lib, shulardan faqat 30 ga yaqini mahsuldor hisoblanar ekan. Olim bu mahsuldor morfemalarga quyidagilarni kiritadi:

ot so‘z turkumidagi o‘zakka qo‘shiluvchi prefikslar va suffikslar: **un-, ur-, ex-, -e, -ung, -nis, -heit, -keit, -ei, -er, -ling, -sal, -haft, -isch, -lich, -ig;**

sifatga qo‘shiluvchi suffikslar: **-en, -ern, -isch, -lich, -sam, -bar, -haft, -sal;**

fe‘lga qo‘shiluvchi prefikslar va suffikslar: **be-, er-, ent-, ver-, zer, -eln, -ern, -igen, -sen, -ieren;** ravishga qo‘shiluvchi suffikslar: **-s, -lings.**

Shunga ham e’tibor qaratish kerakki, o‘zak-negiz munosabati hamda qo‘shimchalarsiz, bir so‘z turkumdan boshqa bir turkumga o‘tish orqali so‘z yasalishi, nemis tili flektiv tillar qatoriga kirsa ham, nisbatan unumsiz usullardan hisoblaniladi.

Biroq talabalarning nutqiy faoliyatlarida faol so‘z boyligini oshirishda shunga ahamiyat berish kerakki, nemis tilidagi ayrim suffikslar bir vaqtning o‘zida ham so‘z yasovchi, ham lug‘aviy shakl yasovchi, ham munosabat shaklini hosil qiluvchi qo‘shimcha vazifasini ham o‘tab kelishi mumkin. Masalan, nemis tilidagi “**-er**” suffaksi so‘z yasovchi (lesen + -er = **der Leser** (kitobxon)), **shakl yasovchi** (das Buch + -er = **die Bücher** (kitoblar)) qo‘shimcha yoki bo‘lmasa **bog‘lama unsur** (das Kleid + -er + der Schrank = **der Kleiderschrank** (kiyim javoni)) vazifasida kela oladi.

Talabalarning so‘z boyligini oshirishda boshqa german tillarida bo‘lgani kabi nemis tilidagi qo‘shma so‘zlarga, bunday qo‘shma so‘zlarning nutqiy vaziyatlarda

ishlatilishiga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Zero, olimlarimizdan P.J.Nazarov, S.M.Abduraxmanovlar ta'kidlab o'tganlaridek [4;171-173], qo'shma so'zdan nutqda tayyor holda foydalanamiz, so'z birikmasidan esa tayyor holda foydalanishning iloji yo'q, chunki so'z birikmasidagi tobe so'z hokim so'zning talabiga ko'ra har xil so'z shakllarida kela oladi.

Nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o'rgatishda quyidagi tamoyillarga tayanishni taklif qildik.

- ona tili va birinchi chet tiliga tayanish tamoyili;
- qiyoslash tamoyili;

Ushbu tamoyillar ichida talabalarning ona tili va birinchi chet tilini hisobga olish tamoyiliga alohida e'tibor qaratdik. Nemis tilidagi leksik derivatlarni ikkinchi chet tilida o'rgatishda qiyoslash usullari ham juda muhim bo'lib, bunda birinchi til ingliz tili nemis tili bilan birgalikda german tillariga kirishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida, nemis tilidagi qo'shma so'zlarni talabalarga tushuntirishda o'zbek va rus tillaridan farqli ravishda ko'pchilik so'z birikmalari german tillarida qo'shma so'z sifatida ifoda etishini ham talabalarga tushuntirib o'tish kerak bo'ladi. Masalan,

o'zbek tilida: kitob javoni – so'z birikmasi;
 rus tilida: книжная полка – so'z birikmasi;
 nemis tilida: Bücherschrank – qo'shma so'z;
 ingliz tilida: bookshelf – qo'shma so'z.
 yoki:

o'zbek tilida: kunduzgi nur – so'z birikmasi;
 rus tilida: дневной свет – so'z birikmasi;
 nemis tilida: Tagelicht – qo'shma so'z
 ingliz tilida: daylight – qo'shma so'z...

Ta'lim oluvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularning so'z boyligini muntazam oshirib borish orqali o'z fikrlarini chet tillarida bayon eta olishlariga erishish maqsadida biz tomonimizdan uch yil mobaynida tajriba ishlari tashkil etildi. Tajriba ishlarmizni olib borishdan asosiy maqsad talabalarning nemis tiliga qiziqishlarini oshirish, nemis tildagi faol so'z boyliklarini oshirish evaziga ularda bu tildagi nutqiy ko'nikma va malakalarni takomillashtirishga qaratildi.

Keyin esa so'z boyligini oshirish bo'yicha oxirgi ikki tamoyilga tayangan holda ishga kirishdik. Bu o'rinda, bir o'zak morfemaga turli boshqa morfemalar qo'shish orqali o'zakdosh so'zlar, so'z oilalari yaratish va ulardan nutqiy faoliyatda samarali foydalanishga alohida e'tibor berdik. Zero, talabalarning chet tilidan, xususan, nemis tilidan so'z boyliklarini oshirishda va so'z boyligini oshirish orqali ularning og'zaki va yozma nutqlarini takomillashtirishda so'zning morfem shaklidan unumli foydalanish muhim rol o'ynaydi. Zero, nemis tilida so'z o'zagidagi unli va undosh tovushlarning

o‘zgarishi, so‘z yasovchi qo‘sishimchalar orqali ot, sifat, fe’l va ravish, son kabi so‘z turkumlariga kiruvchi yangi so‘zlar hosil qilinishi, aniqlovchi va aniqlanmish o‘rtasidagi sintaktik aloqaning ko‘pincha qo‘shma so‘z shaklida ifoda etilishi bilan turli xil so‘z oilalari hosil qilish, bir o‘zak so‘zdan to‘liq jumlalarni yuzaga keltirish imkoniyati mavjuddir.

Xulosa qilib aytganda, talabalar so‘z boyligini oshirish jarayonida derivatsion yondashuvning nechog‘lik muhimligini ko‘rishimiz mumkin. Bu o‘rinda tadqiqot ishimizning ob’yektidan kelib chiqqan holda, asosiy tili ingliz tili bo‘lgan filolog talabalarga nemis tilini o‘rgatishda so‘zning derivatsion tarmoqlanishi hodisasini ongli qiyoslash metodi orqali talabalarga tushuntirish yaxshi samara beradi degan xulosaga keldik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Барышникова Н.В. Методика обучения второму иностранному языку в школе. // Уч.пособие. – Москва: Просвещение, 2003. 159 с.
2. Fleischer Wolfgang, Irmhild Barz. Wortbildung der deutschen Gegenwartssprache.. –Tübingen: Max Niemeyer Verlag, 1992. -382 S.
3. Karina Schneider Wiejowski. Produktivität in der deutschen Derivationsmorphologie. Dissertation zur Erlangung des Akademischen Grades PhD (doctor philosophiae). –Bielfeld, 2011. S.228.
4. Nazarov P.J., Abduraxmanov S.M. Chet tillarni o’rganishda leksik derivatsiyalardan foydalanish // Хоразм Маъмун ақадемияси ахборотномаси. –Хива, 2020/12, 171-173-betlar.